

# **Yo'lovchi va kutib oluvchilar diqqatiga**

**2022 23 Noyabr**

2022-yil 22-noyabr kuni Farg'ona xalqaro aeroportining noqulay ob-havo sharoiti tufayli Uzbekistan Airways bir nechta reyslari majburiy kechiktiriladi:

HY-340 Dubay – Farg'ona qatnovi Namangan aeroportiga yo'naltirildi.

Farg'ona xalqaro aeroportida noqulay ob-havo sharoiti yuzaga kelgani munosabati bilan HY-072/HY-071 Farg'ona – Samarqand – Farg'ona va HY-082 Farg'ona – Toshkent qatnovlari 23-noyabr kuniga ko'chirilganini ma'lum qilamiz.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo'lovchilar xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.